



Alisher Navoi's work "Muhokamatul lug'atayin" as a rare monument of medieval linguistics

Mekhribon ABDURAKHMANOVA¹

University of World Economy and Diplomacy

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2025

Received in revised form 5
September 2025

Accepted 10 October 2025

Available online 25 October
2025

Keywords:

Alisher Navoi,
"Mukhokamat ul-lugatayn,"
comparative grammar,
Old Uzbek language,
Turkic languages of the
Timurid period.

ABSTRACT

In this article, the author examines the significance of Alisher Navoi's "Mukhokamat ul-lugatayn" as a historical and scholarly work that demonstrates the richness and expressiveness of the Old Uzbek language and serves as a primary source for observing lexical, morphological, and stylistic changes in the modern Uzbek literary language through the Old Uzbek language. The author also presents her conclusions.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss9/S-pp155-160>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Alisher Navoiyning "Muhokamatul lug'atayin" asari o'rta asrlar tilshunosligining nodir yodgorligi sifatida

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Alisher Navoiy,
"Muhokamat ul-lug'atayn"
asari,
qiyosiy grammatika,
eski o'zbek tili,
temuriylar davrida turkiy til.

Maqolada muallif Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari – eski o'zbek tilining boy va ifodali til ekanini isbotlab bergan tarixiy-ilmiy asar sifatidagi qimmatini hamda uning eski o'zbek tili orqali hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik, morfologik va uslubiy o'zgarishlarini kuzatishda asosiy manba ekanligi to'g'risida fikr yuritadi hamda o'z xulosalarini beradi.

¹ Associate Professor, Department of Uzbek and Russian Languages, University of World Economy and Diplomacy.

Произведение Алишера Навои «Мухокамат ул лугатаин» как редкий памятник средневекового языкознания

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Алишер Навои,
«Мухокамат ул-лугатаин»,
сопоставительная
грамматика,
древнеузбекский язык,
тюркские языки эпохи
Тимуридов.

В статье автор рассматривает значение «Мухокамат ул-лугатаин» Алишера Навои как историко-научного труда, доказывающего богатство и выразительность древнеузбекского языка и являющегося важным источником для наблюдения за лексическими, морфологическими и стилистическими изменениями современного узбекского литературного языка через призму древнеузбекского. В заключение автор формулирует свои выводы.

Tilshunos olimlar tomonidan hozirgi o'zbek adabiy tilining XIV–XV asr eski o'zbek adabiy tili bilan tarixiy munosabatlari keng planda ilmiy o'rganilib, o'zbek xalqi va tili tarixiy taraqqiyotida bu davrning o'ta muhimligi isbotlab berildi. Jumladan, XIV–XV asrlar o'zbek tili taraqqiyotida Alisher Navoiyning xizmatlari beqiyosligi e'tirof etilgan. Alisher Navoiy temuriylar mamlakati va ayni zamonda o'z ona Vatani bo'lgan ulkan yurt uchun munosib ulug' va qudratli adabiy til yaratish, to'g'rirog'i, uzoq asrlardan beri qo'llanib kelayotgan mavjud o'zbek tilini ana shunday zabardast va klassik adabiy til darajasiga ko'tarish uchun ulkan hissa qo'shdi.

Alisher Navoiy asos solgan va uni eng yuqori taraqqiyot pog'onasiga ko'targan eski o'zbek adabiy tili temuriylar davri renessansining ilm-fan va madaniyat sohasi ta'sirida shakllangan. Madaniy markazlarda tarqalgan lahja va shevalar ham renessans ta'siridan bebahra qolgan emas, o'zbek adabiy tilining tashkil topishi, tarkibi va taraqqiyotida, shubhasiz, muhim omil sifatida ishtirok etgan.

Navoiy o'zbek tilining boyligi va qudratini, ifodaviy imkoniyatini asosli tahlil etgan tilshunoslikka oid durdonalaridan biri „Ikki til muhokamasi“ (Muhokamat ul-lug'atayn) asarida o'zbek tilining boyligi, qudrati, o'sha zamonning adabiy tillari qatoridan o'rin olishga qodir va haqli ekanini ilmiy tomondan isbotladi. Alisher Navoiyning „Muhokamat ul-lug'atayn“ asarida turkiy tilda, aniqrog'i, eski o'zbek tilida yozish an'anasi Erondagi mo'g'ul hukmdorlardan, XIII asrning II yarmida hukmronlik qilgan Holikuxon zamonidan boshlanib, Amir Temur va temuriylar davrida taraqqiy topgani haqida qayd etilgan. Haqiqatan ham, Temuriylar davrida turkiy til (o'zbek tili), shu bilan birga, madaniyat, adabiyot va san'at, ilm-fan taraqqiyoti juda baland pog'onaga ko'tarildi. Temuriylar davrida ilm-fan va madaniy ko'tarilishning muhim bir xususiyati shundan iboratki, bu davrda turkiy til, ya'ni eski o'zbek tilini rivojlantirishga davlat miqyosida e'tibor berildi [1].

Shu ma'noda „Muhokamat-ul lug'atayn“ asari eski o'zbek tili ilmiy tadqiq qilingan, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik sohasining ilk namunasi sifatida beqiyos ahamiyatga ega. Asarda Navoiy turk va fors tillarini so'z boyligi, ifodalash imkoniyati, ma'no nozikliklari, she'riy san'at vositalaridan foydalanish darajasi kabi bir qator mezonlar asosida solishtiradi. U turk tilida bir so'zda bir necha ma'noni ifoda etish imkoni borligi, bu tildagi so'zlar jonli va xalqqa yaqinligini ta'kidlagan holda, turkiy tilning maqomi va ahamiyati haqida keng bahs yuritadi. Alisher Navoiy ilk bor turkiy tilning, aniqrog'i, eski o'zbek tilining adabiy til jihatdan mukammal, ifodasi keng va so'z boyligi juda ulkan ekanini ilmiy

asosda isbotlab berdi. Navoiy bir tomondan, tillarni o'zaro qiyoslash orqali, xususan, o'zbek (turkiy) va fors tillarini unli tovushlar, leksika va morfologiya doirasida o'zaro solishtirish, turkiy tilning boyligi va ma'no nozikliklarini berishda ustunligini misollar bilan asoslashga, ikkinchi tomondan, o'zi yaratgan asarlar haqida ma'lumot berib, bu bilan turkiy(o'zbek) tilning turli ilmiy, badiiy asarlar yaratish imkoniyatini ko'rsatishga intiladi. Navoiy turk tilida ifodalangan g'oya va fikrlar xalq ruhiga yaqin, o'z holicha ta'sirli ekanini ko'rsatadi. U shunday yozadi: *"Turk tilida bir she'ri anglamoq, bir necha forsiy she'rlarni anglamoqqa teng kelur."* Shu tariqa u turk tilidagi so'zlarning ta'sirchanligi, mazmunan boyligi va xalqona ekaniniga e'tibor qaratadi. Navoiy tillarni o'ta nozik did va aniq sifat bilan ta'riflar ekan, xalqlarning o'ziga xos jihatlarni mohirona qiyoslaydi.

"Andoq malum bo'lurki, turk sortdin tez fahmroq va baland idrokroq va xilqati sofrok va pokroq maxluq bo'lubtur va sort turkdin taaqqul va ilmida daqiqroq va kamol va fazl fikratida amiyqroq zuhur qilibdur va bu hol turklarning sidq va safo va tuz niyatidin va sortlarning ilm va funun va hikmatidin zohir durur. Va lekin tillarida kamol va nuqson haysiyatidin fohish tafovutlardurki, alfoz va iborat vaz' qilurda turk sortqa foyiq kelibdur va o'z alfozida ishorat, iboratig'a maziyaatlar ko'rguzuptur..." [2].

U turkiy shoirlar, turkiy ziyolilarning turkiy til bilan birga forsiy tilni ham yaxshi bilishlarini, ularning ko'pi bu tilda betakror asarlar yaratganini alohida ta'kidlab, forsiy o'y shoirlar esa turkiy tilni bilmasliklarini qayd etish bilan, turkiylarning zehni, til o'rganish qobiliyatiga afzallik deb qaraydi.

"Sartlar orasida kobiliyat, bilim ahllari va ilm, zihn hamda o'tkir ko'z egalari ko'proqdir. Turk xalqida to'ng va sodda dillar sartdan ko'ra ortiqroqdir. Ammo turkning kattadan kichigigacha, xizmatkoridan begigacha sart tilidan bahramanddirlar. Shundayki, o'z tirikchiliklariga oid ahvollar ustida so'zlasha olurlar, balki ba'zilar adabiy ravishda so'zlashaolurlar. Hattoki turk shoirlari forsi tilida rangdor she'rlar va shirin hikoyalar yuzaga chiqara olurlar." [2], derkan u turkiy shoirlarni turkiy tilda yozishga da'vat etadi, ayniqsa, zamonining shahzoda, beklari va iste'dod egalarini turkiy tilda yozishga undaydi. Ham turkiy shoirlar, yozuvchilarni o'z ona tillarida yozish va ijod etishlari Navoiyning ezgu maqsadi istagi bo'lgan.

"Barchasidin arab tili fasohat oyini bila mumtoz va balog'at taz'yini bila mu'jiza tirozdurkim, hech takallum ahlining munda da'vosi yo'qtur va so'zi sidq va ishi taslimo'qdurkim, maliki allom jalla va aloning kalomi mu'jiz nizomi ul til bila nozil va rasul (alayhis-salavot vas-salom)ning ahodisi saodat anjomi ul lafz bila vorid bo'lubdur. Va avliyoyi kibor va mashoyixi oliy miqdor (qaddasallohu asrorahum) ko'proq haqoyiq va maorifki surubturlar va maoniy zebolarin taqrir libosig'a kiyurupdurlar ul farxunda iborat va ul xujasta alfoz va ishorat bila voqi' bo'lubtur...", deya arab tiliga yuqori baho beradi.

"Mundin so'ngra uch nav' tildurkim, asl va mu'tabardur va ul tillar iborati gavhari bila qoyilining adosig'a zevar va har qaysining furui bag'oyat ko'ptur. Ammo turkiy va forsiy va hindiy asl tillarning manshaidurki, Nuh payg'ambar (salavotullohu alayh)ning uch o'g'lig'akim, Yofas va Som va Homdur yetushur." [3].

Shu o'rinda bir masalaga to'xtab o'tishni joiz deb bildik. Bu davrda Eron va turk madaniyatining munosabatlarini tahlil qilishda birini ikkinchisidan ustun qo'yish fikridan uzoqmiz. Zero madaniyatning eng muhim unsuri turkiy (o'zbek) va eroniy (tojik) tillarining bir hududda, Movarounnaxr va Xurosonda, ayniqsa, Samarqand va Xirotilar va ularning oralig'idagi hududlarda aralash muhitda o'z ichki qonunlari asosida taraqqiy etib kelgani ma'lumdir. Alisher Navoiy ijodiy merosi ham aslida shu

madaniyatning hosilasi sifatida yuzaga keldi. Chunki Navoiyning o'zi ana shunday madaniyatga ega bo'lgan xalqning vakili sifatida o'z xalqi madaniyati, tili ijodi bilan bevosita muloqotda bo'ldi, uni o'rgandi. Alisher Navoiyning o'zi mansub bo'lgan doira madaniyati ham qaysidir ma'noda eroniy doiralar madaniyatiga uyg'un edi.

Professor Qudratilla Omonovning ta'rifi bilan aytganda, tillarning o'zaro chog'ishtirma tadqiqiga asoslangan "Muhokamatul-lug'atayn" ("Ikki til muhokamasi") monografiyasi bilan dunyo tilshunosligida mutlaqo yangi ilmiy yo'nalishlarga – komparativistika va lingvistik graduonimiyaga asos solindi. Alloma ushbu asari orqali chog'ishtirma tilshunoslikning tadqiq yo'llari, tahlil usullari, metodologik bazasini ishlab chiqdi. *Navoiy turkiy tilning turli grammatik, so'z yasash imkoniyati, so'z ma'nosining juda nozik jihatlarini ifoda etishdagi afzalliklarini o'zga tillar, ayniqsa, forschaga nisbatan tavsifiy, qiyosiy va tahliliy yo'sinda ko'rsatgan* [4].

Alisher Navoiy "Muhokamatul lug'atayn"da aniq dalillar asosida keltirgan 100 ta fe'l tahlili orqali graduonimiya masalasida sharq lingvistikasi tarixida gradual leksika, gradual semantika yuzasidan eng asoslangan ilmiy ma'lumotlarni bergan [4].

"Bu yuz lafzdurki, g'arib maqosid adosida tayin qilibdurlarki, hech qaysi uchun sort tilidalafz yasamaydurlarki, barchasi muhtojun ilayhdurki, takallum chog'ida kishi anga muhtoj bo'lur. Ko'pi andoqdurki aslo aning mazmunin tafhim qilmoq bo'lmas va ba'ziniki, anglatsa bo'lg'ay, har lafz tafhimi uchun necha lafzni tarkib qilmag'uncha bo'lmas, ul dag'i arabiy alfoz madadi bila. Va turk alfozida bu nav' lafz ko'p topilur. Masalan, bu mazkur bo'lg'on yuz lafzdin bir nechaga mashg'ulluk qilib sobit qilali, to xasm muqobalada ilzom bo'lsunki, o'zgalarni munga qiyos qilsun." [5].

Harakat va holatni ifoda qilishda turk tilining ustunligi hamda turk tilining fe'l shakllarini yasash imkoniyatlari juda kengligi muallif tomonidan alohida qayd etiladi. Fe'l shakllari, fe'llardan so'z yasash usullarining osonligi, turkiy tilda bir fe'ldan o'ndan ziyod grammatik shakl hosil qilish imkoni borligi, aksincha, forsiyda bunday imkoniyat cheklangani ta'kidlanadi: "bil" – *bilish, bilguchi, bilim, bilimli, bilmas, bilinur* kabi. Yana bir jihati shundaki, biz yuqorida qayd etganimizdek, fors tilida ko'p fe'llar arab tilidan olingan bo'lsa, turkiy tilda esa fe'llar xalq tilidan olingani, uning tabiiy va xalqona ekanligi adabiy til shakllanishi, tarkibi va taraqqiyotida sheva va lahjalar muhim omil sifatida ishtirok etganini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy turkiy tilda so'z yasalishi mantiqiyliigi va soddaligi bilan qiyoslanayotgan tillardan afzalligini isbotlaydi. Ayni ish-harakat yoki holatning ma'noviy darajalanishining nozik jihatlarini ifodalay oladigan turkiy til bilan faxrlanadi. Masalan, ayni bir ish-harakatni ifodalovchi fe'llarning ma'no nozikliklariga yorqin misollar bilan izoh beradi: *sipqormoq* – oxirigacha simirib ichmoq, *tomshimoq* -oz-oz ichmoq ma'nosida. *"Shuaro akobiridinki, ba'zi «may» ta'rifida mubolag'a qilibdurlar, va bu mu'taddun bih amredurki, may ichmoq qavoidida so'z ko'p surup, zarofat nihoyatsiz zohir qilurlar. Biri sipqarmoq lafzidurki, mubolag'a munda o'tmas. Turkcha nazmda bu matla' bordurkim.*

Bayt:

Soqiyo, tut bodakim, bir lahza o'zumdin boray,

Shart bulkim, har necha tutsang labo-lab sipqaray.

Oyo! bu sipqaray lafzi mazmunig'a yetganda, forsiy she'rda ne iloj qilg'aylar. Va tomshimoq ki, g'oyat; zavqdin bot ichmas va lazzat topa-topa, oz-oz ichar. Bu g'arib ma'ni adosida turkchada bu matla' borkim,

Bayt:

Soqiy chu ichib, menga tutar qo'sh:

Tomshiy-tomshiy ani qilay no'sh [6].

Asarda berilgan 100 tagina fe'ning tahlilidan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, bir necha so'z yoki birikma yordamida izohlanadigan holat yoki harakatni bir leksik birlik (bir so'z) bilan ifodalay olish mumkinligi tilning mukammalligini ko'rsatuvchi belgidir. Masalan, *isqarmak* – ko'zini yoshdan tolgani, *do'msaymak* – achchig'idan qovoq solib o'tirmoq, *kirkinmak* – sovuqdan yoki yengil qo'rquvdan sekingina titramoq, *kumurmak* – tish bilan uzib yemoq, *qoralamoq* – orqasidan bormoq, ko'ruksamak – ko'rishni istamoq kabi.

“Muhokamat ul-lug'atayn” – bugungi tilshunos va lug'atshunos olimlar uchun ham tilning qiyosiy tahlilining ilk namunasi bo'lib xizmat qiladi. Uni chuqur tadqiq qilgan holda, eski o'zbek tilining lug'at tarkibi, forsiy ta'siridagi o'zgarishlar, sinonim va omonim so'zlarning farqi, so'z yasaliish tiplari va uslubiy ko'p ma'nolilik kabi qator ilmiy mavzular o'rganiladi. Shu bilan birga asar eski o'zbek tili orqali hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik, morfologik va uslubiy o'zgarishlarini kuzatishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug'atayn” asari – turk tilining boy va ifodali til ekanini isbotlab bergan tarixiy-ilmiy asardir. Buyuk adib bu asar orqali nafaqat o'z tiliga bo'lgan muhabbatini ifoda etibgina qolmay, balki kelajak avlodlar uchun ham o'z ona tilini ardoqlash va uni rivojlantirish zarurligini uqtirdi. Zero asar bugungi kunda ham til madaniyati, milliy o'zlik va ma'naviy merosning qimmatini anglatuvchi yo'l xaritasi bo'lib xizmat qilmog'i zarur. Bu asar bugun ham ona tilini qadrlash, undan faxrlanish va uni rivojlantirishda beqiyos manbadir. Shu ma'noda, “Muhokamat ul-lug'atayn” asari milliy g'urur va madaniy o'zlikni anglash nuqtayi nazaridan ham benihoya muhimligini alohida ta'kidlash joizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar, Toshkent, 1948.
2. Omonov Qudratulla. Alisher Navoiyning "Muhokamatul lug'atayin" asari va uning dunyo tilshunosligi taraqqiyotidagi o'rni \ «Navoiyshunoslar»: maqolalar to'plami. – Toshkent: TDSHU, 2023. – 170 b.
3. Алишер Навоий. Муҳокамату-л-луғатайн. – Тошкент: “Академнашр”, 2017, 6 бет.
4. Bartold V.V. “Мир Али-Шер и политическая жизнь” – Академик Бартольд: Сочинения, II том, 2-qism, M., 1963
5. A.Yakubovskiy. Черты общественной жизни эпохи Алишера Наваи. – “Алишер Наваи”. Maqolalar to'plami, M.-L., 1946
6. ALISHER NAVOIY IJODINING ESTETIK MAHORATI //A Aripova, Journal of universal science research 3 (2), 129-134
7. “OLAM AHLI, BILINGIZKIM...” yoki Alisher Navoiy asarlarida umuminsoniy qadriyatlar // A Aripova Journal of universal science research 3 (2), 125-128
8. ШАРҚНИНГ БУЮК НОТИҚЛАРИ // АХ Арипова SCIENTIFIC PROGRESS 2 (1), 738-748
9. Qarang: M.Abduraxmanova “Alisher Navoiy va zamon munosabati masalasi” // O'zbekiston: til va madaniyat lingvistika 2025 Vol. 1 (1), ISSN 2181-922X, 45-51b. www.linguistics.tsuull.uz, www.navoiy-uni.uz www.uzlc.navoiy-uni.uz

10. Alisher Navoiyning "Muhokamatul lug'atayin" asari, www.ziyouz.com kutubxonasi, 3-bet.
11. Alisher Navoiyning "Muhokamatul lug'atayin" asari, www.ziyouz.com kutubxonasi, 2-bet.
12. Qarang: Omonov Qudratulla. Alisher Navoiyning "Muhokamatul lug'atayin" asari va uning dunyo tilshunosligi taraqqiyotidagi o'rni \ «Navoiyshunoslar»: maqolalar to'plami. – Toshkent: TDSHU, 2023. – 32-b.
13. Alisher Navoiyning "Muhokamatul lug'atayin", www.ziyouz.com kutubxonasi, 4-bet.
14. Alisher Navoiyning "Muhokamatul lug'atayin", www.ziyouz.com kutubxonasi, 5-bet.